



FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA

[Jild: 4 Nashr: 2 (2025)] ISSN: 2992-8915

www.mudarrisziyo.uz

YUSUF ALAYHISSALOM: SABR VA ISLOM TARIXIDAGI ULUG' HAQIQAT

*O'razmatova Mahliyo Dilmurod qizi*¹

¹ Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot Nosiriddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'urziy" da keltirilgan qissalardan biri, Yusuf alayhissalom qissasidagi voqea-hodisalar, Allohning yagona zot ekanligiga ishonish hislari, har qanday qiyinchilik ortidan yegillik kelishi kabi holatlarini uchratishimiz mumkin. Yo'qchilikda ham, to'qchilikda ham inson o'zini yo'qotib qo'ymasligi, aka-ukalarga nisbatan kechirimli bo'lish, hattoki, dushmanlarni kechirib, bag'rikeng bo'lish kabi xulosalarni beradi. Bu qissa tahlili asosida shuni aytishimiz mumkinki, dunyoning bir qvatini mehr-oqibat va duo tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Yusuf alayhissalom, Yoqub payg'ambar, Qur'oni Karim, Ismoil va Idris payg'ambarlar, islom dini, Misr xalqi, qiyosiy metodlar, Xalilulloh.

Kirish

Yusuf alayhissalomning qissasi, Qur'onda eng go'zal va ma'noli voqealardan biri sifatida taqdim etilgan. Ushbu maqolada, Yusuf alayhissalomning hayoti, uning sabr, halollik, adolat kabi fazilatlari va bu fazilatlarning hozirgi jamiyatda o'zgarishi o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi – Yusuf alayhissalomning hayotidan olingan saboqlarni zamonaviy insoniyatga qanday tatbiq etish mumkinligini ko'rsatishdir.

Yusuf alayhissalom qissasi Qur'onda eng go'zal qissalardan biridir. Voqea Yusufning tush ko'rishi bilan boshlanadi. Yusuf alayhissalom yoshligida o'zining maxsus maqomini ko'rsatadigan tush ko'radi: Quyosh, oy va o'n bir yulduz unga ta'zim qiladi.

Metodologiya

Bu tadqiqotda asosan tahliliy va qiyosiy metodlar qo'llaniladi. Tadqiqot davomida Yusuf alayhissalomning qissasi Qur'oni Karimda va boshqa diniy manbalarda qanday yoritilgani tahlil qilinadi. Tadqiqotda shuningdek, zamonaviy falsafiy qarashlar bilan qiyoslash orqali uning ahamiyati tahlil qilinadi. Yusuf alayhissalomning hayoti bizga sabr va halollikning qanchalik muhimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, uning aka-ukalari bilan bo'lgan munosabati va ularga kechirim berishi, adolatni o'rnatishning nafaqat diniy, balki insoniy ahamiyatini ta'kidlaydi. Tahliliy va qiyosiy metodlar asosida, boshqa Paygambarlarning amallari va qilgan ezgu ishlari bilan qiyoslaydigan bolsak, Idris alayhissalom Alloh taolo tomonidan yuborilgan tortinchi paygambardir. Bu paygambar Quroni Karimda ikkita joyda tilga olingan: 1. Maryam surasi, 56-57-oyatlar: "Kitobda Idrisni ham zikr qil. Albatta, u rostgoy paygambar edi. Biz uni yuksak bir martabaga kotardik." 2. Anbiyo surasi, 85-86-oyatlar "Ismoil, Idris va Zul-kiflarni eslang. Ularning barchalari sabrli edilar. Ularni rahmatimizga kiritdik. Darhaqiqat, ular solihlar edilar."

Har bir insonning hayotida Allohning belgilagan rejaları mavjud. Sabr va imon bilan harakat qilgan kishi muvaffaqiyatga erishadi Yusuf alayhissalomning yoshlikda tush ko'rishi insonning ichki tuyg'ulariga ishonishining ahamiyatini ko'rsatadi. Yusuf alayhissalom otasi Ya'qub alayhissalomning mehriq sazor edi, bu esa aka-ukalarining hasadini uyg'otdi. Ular Yusufni yo'q qilishni rejalashtiradilar va uni quduqqa tashlaydilar. Hasad insonni gunoh va yovuzlikka yetaklaydi. Qissadan ma'lumki, Yusufning aka-ukalari oxir-oqibat pushaymon bo'ladilar. Ota-onalar farzandlar o'rtasida adolatli bo'lishlari va birini boshqasidan ustun qo'ymasliklari lozim. Biz deyarli barcha paygambardlar hayotida, amallarida sinkretiklik hodisasiga duch kelamiz. Jumladan, Yusuf alayhissalom singari, yagona Allohga ibodat qilishga davat etgan paygambardlarimizdan biri, Ibrohim (alayhissalom). U "Xalilulloh" (Allohning dosti) unvoni bilan sharaflangan tavid-yagona Allohga ibodat qilishga davat qilgan u butlarni o'z qoli bilan yasaganini va ular hech narsaga foyda ham, zarar ham yetkaza olmasligini tushintiradi. U oy, yulduz va quyoshga sigingarlarni ham davat qiladi. Ibrohim (alayhissalom) bir kecha yulduz, keyin oy va quyoshni kuzatib, ularning barchasi yoqolib ketishini korsatib, yagona Allohga ibodat qilishni targib qildi (Anom surasi, 76-79-oyatlar). Bundan korinib turibdiki, paygambardlar yashash davrida Allohdan ozga xostor yoq ekanligi odamlarga singdirilgan. Yusufning (alayhissalom) sinovlariga toxtaladigan bolsak, Yusufni quduqdan olib chiqishadi va qullikka sotishadi. Yusuf Misrda boy bir amaldor — Azizning xizmatiga tushadi. Yusuf o'z qismatidan nolimaydi va Allohga bo'lgan ishonchini yo'qotmaydi. Bu bizni sinovlarga bardoshli bo'lishga o'rgatadi. Yusufning o'z fazilatlarini bilan hurmat qozonishi insonning qayerda bo'lmasin o'z axloqiy qadriyatlarini saqlashi muhimligini ko'rsatadi. Zulayho fitnasi va Yusufning pokligi: Dinimizda " Nafsiga maglub bolgan shoh-gado kabidir. Nafsi ustidan galaba qozongan gado esa shohlardan ham yuksak unvonga egadir", degan fikr mavjud. Zulayho Yusufga yomon niyat bilan yaqinlashadi, lekin Yusuf gunoh qilishdan bosh tortadi. Bu sinovda Yusuf zindonga tashlanadi. Erkak kishining to'qqizta aqli, bitta nafsi bo'larkan, ayol kishining to'qqizta nafsi, bitta aqli bo'larkan. Ayol bitta aqli bilan to'qqizta nafsini yengar ekan, lekin erkak kishi to'qqizta aqli bilan bitta nafsini yenga olmas ekan, degan fikrlar ham mavjud. Ammo Yusuf alayhissalom qissasi bu fikrlarni rad etadi. Shu asnodan taqqoslamali fikrlar yuzaga keladi. Bunday sinkretik qarashlar qaysidir ma'noda bir-biriga zid bo'lsa, qaysidir ma'noda bir-birini to'ldiradi.

Tahlil va Natijalar

Yusufning o'z pokligini saqlashi uning imoni mustahkamligini ko'rsatadi. Bu bizga har qanday vaziyatda Allohga tavakkul qilishni o'rgatadi. Halollik va taqvo oxir-oqibat kishini qutqaradi. Yusuf zindonda ikkita mahbusning tushini ta'bir qiladi va bu orqali uning donoligi tan olinadi. Keyinchalik, bu donolik uni qirol huzuriga olib keladi. Inson qayerda bo'lmasin, ilm va axloqiy qadriyatlarini ko'rsatishi uning obro'sini oshiradi. Yusufning zindonda sabr qilishi bizga har bir qiyinchilikning ortidan yengillik kelishini o'rgatadi. Kuchli iymon bilan, mustahkam bilim va ishonch bilan qilingan ish hechqachon orqaga ketmaydi, duosi o'zi bilan birga bo'ladi uning. Boshqa payg'ambardlardan farqli ravishda Qur'oni Karimda Yusuf alayhissalomning xotini haqida hechqanday ma'lumot keltirilmagan. Bu uning dunyo-axloqiy, shaxsiy hayotining boshqa payg'ambardlardan farqlanishiga olib keladi. Odatda, boshqa payg'ambardlarning xotinlari haqida ham ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, Yusuf alayhissalom xotini bilan bog'liq hech qanday tafsikot ko'rsatilmagan.

Yusuf qirolning tushini ta'bir qilib, Misrni kelajakdagi ocharchilikdan qutqarishga yordam beradi. Shundan so'ng u mamlakatning eng muhim lavozimlaridan biriga tayinlanadi. Yusuf Allohning ne'matini qadrlaydi va o'z vazifasini adolat va diyonat bilan bajaradi. Ocharchilikka qarshi ko'rilgan choralar insonning uzoqni ko'ra olish va rejalar tuzish qobiliyatining muhimligini ko'rsatadi.

Yusuf aka-ukalarini kechiradi va ularga yaxshi muomala qiladi. Aka-ukalar pushaymonlik izhor qilib, gunohlarini tan olishadi. Yusufning aka-ukalarini kechirishi bizni, dushmanlarimizni ham kechirib, bag'rikeng bo'lishga undaydi. Oilaviy nizolar oxir-oqibat kechirim va hamjihatlik bilan hal bo'lishi kerak. Yusufning ko'ylagi orqali otasi Ya'qub alayhissalomning ko'rish qobiliyati tiklanadi. Bu Allohning mo'jizalarini ko'rsatadi. Ya'qub sabr-u toqati va Allohga ishonishi har bir musulmon uchun ibratlidir. Yusuf alayhissalom barcha sinovlarni yengib, oilasini birlashtiradi va buyuk rahbar bo'lib yetishadi. Bu qissa bizni sinovlarga bardoshli bo'lishga, adolatli va pok bo'lishga, Allohning rejalariga ishonishga o'rgatadi. "Harom oqib keladi, halol tomib keladi", deganlaridek hamisha halollik ilkini qo'yib yubormasligimiz darkor. Yusuf alayhissalom kabi Allohning rejasiga ishonib, sabr va iymon bilan harakat qilish kerak. Bu qissa go'zal ayollar oldida nafsni jilovlay olishni, aka-ukalarga mehr-oqibatli bo'lishni, hatto dushmanlarga nisbatan kechirimli bo'lishni o'rgatadi. Yusuf alayhissalom Allohga tavakkul qiladi va maqsadlariga halollik bilan erishadi.

Yusuf surasi bizga shuni eslatadi: "Umidingizni yo'qotmang! Bugun yig'lagan, ertaga albatta, kuladi."

Xulosa

Yusuf alayhissalomning qissasi nafaqat Qur'onning eng go'zal va ta'limotlarga boy qismlaridan biri, balki insoniyat uchun sabr, adolat, halollik va kechirimlilik kabi oliy fazilatlarining mujassamidir. Uning hayoti, o'rta asr va zamonaviy ijtimoiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilsa, insonning jismoniy va ruhiy sinovlarga qanday bardosh berishi, imonining mustahkamligi, har qanday vaziyatda yuksak axloqiy qadriyatlarni saqlash zaruriyati haqida chuqur saboqlar beradi. Yusuf alayhissalomning aka-ukalari tomonidan yuzaga kelgan hasad va ularning keyinchalik pushaymon bo'lishi, o'zaro munosabatlarning ahamiyatini, oilaviy nizolarni hal qilishdagi kechirimlilikni o'rganishga olib keladi. Yusuf alayhissalomning Zulayho bilan bo'lgan voqealari, u o'z nafs va dinga bo'lgan sadoqatini saqlash orqali qanday sinovlarni yengganini ko'rsatadi. Bu voqea nafaqat erkakning nafs ustidan g'alaba qozonishi, balki jinsiy zakovat, axloqiy va diniy fazilatlarining birlashishi haqida muhim xabar beradi. Shuningdek, Yusufning zindonda sabr qilish va donolik bilan natija olish orqali ilgari surilgan ilm va axloqiy qadriyatlarning ahamiyati beqiyosdir. Uning ta'limoti orqali har bir inson o'zining ichki dunyosini mustahkamlashi, nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy hayotda ham adolatni o'rnatishi kerakligini anglaydi. Bundan tashqari, Yusuf alayhissalomning Misrda qisqa vaqt ichida yuqori lavozimga ko'tarilishi uning o'ziga bo'lgan ishonchi, bilim va axloqiy fazilatlarini bilan amalga oshirilgan muvaffaqiyatni ifodalaydi. Ushbu maqola orqali, Yusuf alayhissalomning sabr, kechirimlilik va yuksak axloqiy fazilatlarini zamonaviy jamiyatda ham zaruriy qadriyatlar sifatida qaralishi lozimligini ta'kidlash maqsad qilingan. Maqolada keltirilgan xulosalar, kelajak tadqiqotlari uchun muhim yo'nalishlarni belgilab berib, sabr-toqat, halollik va kechirimlilik kabi fazilatlarining jamiyatdagi ahamiyatini chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sultonaliyevich, M. I. (2022). Xoja Ahmad Yassaviy Ijodida Munozara Janri. Farg'ona davlat universiteti, (5), 76-76.
2. Beknazarovna, E. M. (2024). Tasavvufiy Adabiyot Tarixining Alisher Navoiy Asarlarida Yoritilishi. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2024-2025), 2(5), 5-18.

3. Muminovich, X. X. (2024). Xoja Ahmad Yassaviyning Irfoniy–Falsafiy Qarashlari. Farg'ona davlat universiteti, (1), 139-139.
4. ZARIPBOYEVA, U. (2023). Xorazm, Nurmuhammad Andalib, Munis, Ogahiy, Bayoniy, dostonnavis, “Zaynuralab”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Sa’d Vaqqos”, adabiyot. Journal of Fundamental Studies, 1(12), 44-48.
5. Kamilovna, M. A. (2024). “Tarixi Anbiyo Va Hukamo” Asarida Yusuf Alayhissalom Qissasi Tavsifi. Innovation In The Modern Education System, 5(42), 142-144.
6. R. Muminov, Yusuf alayhissalomning zindondagi sabri va o‘rni, Toshkent: Shifo nashriyoti, 2022.
7. A. Ismailov, Qur’onni anglash: Yusuf alayhissalomdan o‘rganilgan saboqlar, Journal of Religious Studies, vol. 8, no. 3, pp. 77-82, 2018.
8. Ahatova, D. (2023). Qiyossiz Go‘zallikning Badiiy Ifodasida Yusuf Timsoliga Ishora. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).
9. E. Sharifov, Zulayho va Yusuf: sevgi va sinovlar, Religious Philosophy Review, vol. 14, no. 5, pp. 56-60, 2020.
10. Isroilov, G. (2023). " Yusuf Va Zulayho" Turkum Dostonlarida Ya'qub Alayhissalom Yusuf Alayhissalom Obrazlari. Filologiya Ufqlari Jurnal, 12(12).